



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

“QOMUS UL-A’LOM”- ILK TURKIY ENSIKLOPEDIYA SIFATIDA

Mansurov Isroiljon

Turan International University, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shamsiddin Somiyning olti jildlik “Qomus ul-a’lom” haqida umumiy ma’lumotlar tasnifi berilgan. Maqolada ensiklopediyaning yozilish tarixi, qamrovi, o‘rganilganlik darajasi, bugungi kundagi ahamiyati, munaqqidlar tomonidan berilgan tanqid hamda olqishlar, hozirgi davrda qomusning saqlanayotgan kutubxonalar haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada ma’lumotlar izchil hamda aniq ma’lumotlar asoslangan.

Kalit so‘zlar: qomus, tarix, geografiya, ensiklopediya, lug‘at, Shamsiddin al-Muqaddasiy, Abu Rayhon Beruniy, Idrisiy, Marie Nikolas Bouillet, “Qomus ul-ulum”.

«КАМУС УЛ-АЛАМ» КАК ПЕРВАЯ ТУРЕЦКАЯ ЭНЦИКЛОПЕДИЯ

Мансуров Исроилжон

Turan International University, преподаватель

Аннотация

В статье представлена классификация общих сведений о шеститомнике Шамсиддина Сами «Камус уль-Алам». В статье обсуждается история написания энциклопедии, ее объем, уровень изученности, ее значение в наши дни, критика и похвала со стороны критиков, а также библиотеки, в которых энциклопедия хранится в настоящее время. Информация в статье является последовательной и основана на достоверной информации.

Ключевые слова: камус, история, география, энциклопедия, словарь, Шамсиддин аль-Мукаддаси, Абу Райхан Беруни, Идриси, Мари Никола Буйе, «Камус ул-улум».

“KAMUS UL-ALAM” AS THE FIRST TURKISH ENCYCLOPEDIA

Mansurov Isroiljon

Turan International University, Lecturer

Abstract

This article provides a classification of general information about Shamsiddin Sami’s six-volume Qamus ul-Alam. In the article, the history of the encyclopedia’s writing, its scope, the level of study, its importance today, the criticism and praise given by critics, and the libraries where the encyclopedia is stored at the present time are discussed. The information in the article is consistent and based on accurate information.

Keywords: qamus, history, geography, encyclopedia, dictionary, Shamsiddin al-Muqaddasi, Abu Rayhan Beruni, Idrisi, Marie Nicolas Bouillet, “Qamus ul-ulum”.

Turkiy tildagi ilk ensiklopediya sifatida e’tirof etiladigan, tarix, geografiya hamda mashhur insonlarning hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma’lumot beruvchi “Qomus ul-a’lom” (arabcha – “mashhur shaxslar qomusi”) Shamsiddin Somiy tomonidan yozilgan. Ensiklopediya umumiy holda “Mashhur shaxslar qomusi: tarix va geografiya lug‘ati va eng ishonchli ifoda bilan barcha maxsus nomlarning majmuasi” nomi bilan atalgan [1; 3-b.]. Muallif ushbu qomusni “tarix va geografiya fanlarining katta xazinasi”, deb baholaydi. Asarda diniy, tarixiy yoki geografik terminlardan ko‘ra ko‘proq shaxs nomlari — payg‘ambarlar, sahobalar, din olimlari, davlat arboblari, sulola vakillari, sayyohlar, shoirlar va adabiyot namoyandalari hamda joy nomlari — davlatlar, shaharlar, tog‘lar, ko‘llar, daryolar, dengizlar va boshqa geografik obyektlarga alohida e’tibor qaratilgan. Bu jihat kitobning dastlabki sahifalarida ham izoh sifatida aks ettirilgan. Shamsiddin Somiy “Qomus ul-a’lom”dan farqli ravishda ilmiy atamalarni qamrab oluvchi alohida “Qomus ul-ulum” nomli ensiklopediya yaratishni ham rejalashtirgan edi [2; 43-b.].

Hozirga qadar ushbu ensiklopediya asosida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Kujtim Nuro, Osman Kochibay, Sitki Nazik, Vefa Tashdelen, Mustafu Kirach, Aziz Alti, Yavuz Bayram, Avni Erdemir, Semih Yashilbog‘, Mujohid Og‘ul, Mesut Dog‘an, Jihan Okuyuju, Kemal O‘zjan va Ummu Nur Chiftchi kabi tarixchi olimlar tomonidan ensiklopediya ustida ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq hozirga qadar

ushbu qimmatli manba zamonaviy turk tiliga yoki boshqa tillarga to'liq tarjima qilinmagan. Faqat ayrim qismlari Zyber Bakiu, Feti Mehdiu va Mehdi Polisi tomonidan alban tiliga tarjima qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'plab tadqiqotchilar "Qomus ul-a'lom"ning asosiy manbalaridan biri sifatida fransuz olimi Marie Nicolas Bouilletning "Dictionnaire universel d'histoire et de géographie" ("Tarix va geografiyaning umumiy lug'ati") ensiklopediyasini ko'rsatadilar. Biroq ushbu asarni "Qomus ul-a'lom"ning mutlaq asosi yoki oddiy tarjimasini sifatida baholab bo'lmaydi. Chunki Bouillet ensiklopediyasi 2240 sahifadan iborat bo'lsa, "Qomus ul-a'lom" hajman 4830 sahifani tashkil etadi. Shamsiddin Somiy Bouillet asaridan tashqari G'arb olimlarining yana bir qator ensiklopedik manbalaridan ham foydalangan. Jumladan, fransuz geografi va kartografi Lui Vivien de Saint-Martinning "Nouveau dictionnaire de géographie universelle", Alfred Dantesning "Dictionnaire biographique et bibliographique", Gustav Vapereaning "Dictionnaire universel des contemporains" va "Dictionnaire biographique pittoresque", fransuz sharqshunosi Barthelemy d'Herbelot de Molainvillening "Bibliothèque Orientale", ingliz sharqshunosi Thomas William Bealening "The Oriental Biographical Dictionary", italyan sharqshunosi Giovanni Bernardo De Rossining "Dizionario storico degli autori arabi più celebri e delle loro opere" kabi asarlari muhim manba vazifasini bajargan [3; 85-b.].

Shu bilan birga, qomus Islom va Sharq tarixi, geografiyasi, madaniyati hamda mashhur shaxslari haqidagi ma'lumotlar bilan ham boyitilgan. Xususan, Hatib Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod", Ibn Asokirning "Tarixi Dimashq", Edirmalik Nazmiyning "Safinat ush-shuaro", Kadri Chelebi va Xorazmshohning "Tazkirat ush-shuaro" asarlari bilan bir qatorda Istahriy, Ibn Havqal, Shamsiddin al-Muqaddasiy, Abu Rayhon Beruniy, Idrisiy, Abulfido va Bakriy kabi olimlarning asarlaridan ham foydalanilgan. Qomusiy olim G'arbda ensiklopediyalar ko'pligi sababli G'arbg'a oid ma'lumotlarni yig'ishda qiynchilikka duch kelmaganini, aksincha Sharqda bunday manbalar kamligi tufayli ko'plab adabiyotlarga murojaat qilishiga to'g'ri kelganini ta'kidlaydi [4; 90-b.].

Shamsiddin Somiyning arab va fors tillarini mukammal bilishi ensiklopediyaning mazmun jihatdan boyishiga katta xizmat qilgan. Olim ushbu qomusni yaratish jarayonida sakson to'rtta manbadan foydalangan. U foydalangan manbalar ro'yxati alohida qog'oz shaklida yozilib, "Mihran" nashriyatida chop etilgan. Ushbu ro'yxatning bir nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasi mudiri Nuriddin Kalkandelen tomonidan topilib, ensiklopediyaning ilk sahifalariga ilova qilingan.

Umuman olganda, "Qomus ul-a'lom" XIX asr Usmonli imperiyasining madaniyati, tarixiy muhiti, mashhur shaxslari va geografik tasavvurlarini keng ko'lamda aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Bu holat asarning ilmiy va tarixiy qiymatini yanada oshiradi. Muallifning o'zi ham asar qisqa muddat ichida yozilib, tezkor ravishda nashrga tayyorlanganligi sababli ayrim xatolar mavjudligini qayd etadi. Shunga qaramay, turk tilida uzoq vaqt davomida ensiklopedik asarlar yaratilmaganligi hamda fransuz, italyan, ingliz, arab va fors tillaridagi manbalar asosida boyitilgani tufayli "Qomus ul-a'lom" uzoq yillar davomida birlamchi ilmiy manba sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, Yevropada shakllangan ensiklopediya yaratish an'anasi Sharqda ham ensiklopedik tafakkurning rivojlanishiga turtki bergan.

Qomusning nashri o'sha davr matbuotida ham keng yoritilgan. Xususan, "Servet-i Fünun" jurnalining Rumi yil hisobi bo'yicha 1312-yil 19-Kanuni avval (1896-yil 31-dekabr) sanasidagi 303-sonida "Qomus ul-a'lomning to'rtinchi jildining yakunlanishi" nomli maqola chop etilib, unda ensiklopediyaning to'rtinchi jildi nashrdan chiqqani va avvalgi jildlarning muvaffaqiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, har bir jildning narxi 160 qurush ekanligi ham qayd etilgan. E'tiborli jihati shundaki, maqolada ensiklopediyaning besh jilddan iborat bo'lishi va uning katta qismi allaqachon nashr etilgani, umumiy nashrga tayyorlanayotgani haqida ham ma'lumot berilgan.

Ensiklopediyani o'z davrining yetuk mutaxassisleri yuksak baholaganlar. Abdulloh Zuhtu "Sabah" ("Tong") gazetasining rumi yil hisobida 1314-yil 17-fevral sonida "Qomus ul-a'lom oldida", Mefhari "Sabah" gazetasining 16-mart sonida "Qomus ul-a'lom", jurnalist va yozuvchi Ahmet Mithat esa "Tarik" ("Yo'l") gazetasining rumi yil hisobida 1315-yil 22-mart sonida "Qomus ul-a'lom" nomli maqolalarini e'lon qilib, ushbu ensiklopediya haqidagi samimiy va iliq fikrlarini bayon qilganlar. Bundan tashqari, yozuvchi va munaqqid Rejaizoda Mahmud Akram hamda shoir va adabiyotshunos Veled Chelebi Izbudak "Qomus ul-a'lom" haqida maxsus maktublar yozib, muallif mehnatini yuqori baholaganlar.

Rejaizoda Mahmud Akram o'z maktubida ushbu asarni quyidagicha ta'riflaydi: "Butun dunyo va ayniqsa Usmonli imperiyasining geografik holati, Sharq va G'arbnig barcha mashhur kishilari, dunyoga mashhur bo'lgan insonlar haqida yetarli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bu keng qamrovli asar, muhim ma'lumotnoma bizga qanchalik zarur edi". Veled Chelebi esa qomusning muvaffaqiyatli yakunlanganidan

mamnun ekanligini bildirib, Shamsiddin Somiyga bo'lgan cheksiz hurmatini ifoda etadi hamda unga uzoq umr tilaydi. Yozuvchi va pedagog Ebuzziya Tavfiq esa Shamsiddin Somiyning bundan buyon "Qomus ul-a'lom muallifi" deb atashini ta'kidlaydi.

Professor Omer Faruk Akun va Emel Kefeli "Qomus ul-a'lom"ni G'arb ensiklopediyalari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilgan olimlar qatoriga kiradi. Professor Omer Faruk Akun ushbu asarni Sharq tarixi va geografiyasini yorituvchi, madaniy qiymati nihoyatda yuksak bo'lgan qomusiy manba sifatida tavsiflaydi. U Shamsiddin Somiyning G'arb ensiklopediyalarini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilmaganini, balki ulardagi ma'lumotlarni muhimlik darajasiga ko'ra tanlab olib, boshqa Sharq manbalari bilan boyitganini alohida qayd etadi. Jamiyat uchun ahamiyatsiz bo'lgan ma'lumotlardan foydalanilmaganini ham ta'kidlaydi. Tanqidiy jihatdan esa ayrim ma'lumotlarning umumiy xarakterga ega ekanligi va ba'zi tarixiy sanalarda xatoliklar mavjudligini ko'rsatib o'tadi [5; 91-b.].

Omer Faruk Akun ta'kidlashicha, "Qomus ul-a'lom" tarix, geografiya va mashhur kishilar qomusi bo'lish bilan bir qatorda, ayniqsa Islom va Sharq dunyosiga oid maqolalarining ko'pligi sababli Islom qomusi vazifasini ham bajargan. Professor Emel Kefeli esa asarning geografik tavsif usullariga e'tibor qaratib, Yevropa va Anatoliya hududlari xuddi bir qolip asosida yoritilganini ta'kidlaydi. Jumladan, hududlarning tabiati, dengizlari, bo'g'ozlari, tog'lari, tekisliklari, vulqonlari, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, davlat tuzumi, millati hamda diniy tarkibi tizimli ravishda tavsiflangan. Shuningdek, Yevropa tillaridagi manbalardan tashqari arab va fors tillaridagi dastlabki Sharq manbalaridan foydalanilganini ham qayd etadi. Bu holat Shamsiddin Somiyning ilmiy qiyosiy tahlil va tizimli yondashuvga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Ensiklopediya yaratishga ko'plab ma'lumotlarni topishdagi qiyinchiliklar va turli manbalarga murojaat qilishdagi mashaqqatlar sabab bo'ladi. Mihran afandining qo'llab-quvvatlashi natijasida Shamsiddin Somiy ushbu ulkan ensiklopedik loyiha ustida ishlashga kirishadi. Asarning har bir qismi o'n besh kun davomida tayyorlanib, bosqichma-bosqich ommaga taqdim etib borilgan. Dastlab ensiklopediyani ikki jildda nashr qilish rejalashtirilgan bo'lsa-da, keyinchalik u olti jildli yirik qomusga aylangan.

Birinchi va ikkinchi jildlari 1889-yilda, uchinchi jildi 1891-yilda, to'rtinchi jildi 1894-yilda, beshinchi jildi 1896-yilda va oltinchi jildi 1898-yilda Istanbul shahridagi "Mihran" matbaasida bosib chiqarilgan. Kitoblarning umumiy o'lchami 17×24,5 santimetr bo'lib, muqovalari jigarrang charmdan ishlangan. Muallif asarni yozishni hijriy 1306-yil 28-jumadul avval (1889-yil 27-yanvar)da boshlaganini va hijriy 1316-yil 3-shavvol (1899-yil 13-fevral)da yakunlaganini qayd etadi. Ensiklopediya umumiy hisobda 25629 ta ilmiy maqolani o'z ichiga oladi [6; 18-b.].

Ilk nashrdan keyin "Qomus ul-a'lom"ning yana bir nashri 1996-yil 31-dekabrda Anqaradagi "Kashgar" nashriyotida chop etilgan. Ushbu nashrning o'lchami 16×24 santimetr bo'lib, yashil rangli oddiy muqovada tayyorlangan. Nashr xalqaro standart kitob raqami — ISBN tizimiga ega bo'lib, umumiy ISBN raqami 975-94977-0-0 hisoblanadi. Jildlar uchun alohida ISBN raqamlari ham berilgan: birinchi jildniki — ISBN 975-94977-1-9, ikkinchi jildniki — ISBN 975-94977-2-7, uchinchi jildniki — ISBN 975-94977-3-5, to'rtinchi jildniki — ISBN 975-94977-4-3, beshinchi jildniki — ISBN 975-94977-5-1 va oltinchi jildniki ham alohida ro'yxatga olingan. Muhimi shundaki, ushbu nashr birinchi nashrning aynan faksimile nusxasi hisoblanadi. Unda hech qanday kirish so'zi yoki qo'shimcha izohlar mavjud emas.

Hozirgi vaqtda qomusning dastlabki nusxalari ko'plab ilmiy markazlar, universitet kutubxonalari, xalq kutubxonalari va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. Turkiya, O'zbekiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Fransiya, Ispaniya, Kanada, Misr va Filippin kabi davlatlarning oltmishdan ortiq kutubxonalarida ushbu ensiklopediyaning ilk nusxalari mavjud. O'zbekistonda esa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida qomusning barcha jildlari bir necha inventar raqamlari ostida saqlanmoqda. Jumladan, birinchi jild 20636, 13638, 1707, 1713, 1719, 10304, 16323, 17233, 1702, 1703, 12445 raqamlar ostida; ikkinchi jild 15135, 1708, 1714, 1720, 10305, 1704, 16324, 17234, 12446, 18862 raqamlar ostida; uchinchi jild 20637, 9223, 1709, 1715, 1721, 10306, 16325, 17235; to'rtinchi jild 20638, 13639, 1710, 1716, 1722, 10307, 16326, 17236, 18863; beshinchi jild 18864, 9224, 1711, 1717, 1723, 10308, 16327, 17237; oltinchi jild esa 13640, 17777, 9225, 1712, 1718, 1724, 10309, 16328, 17238, 18865 raqamlari ostida fondlarda saqlanmoqda.

Ensiklopediya eski usmonli arab yozuvida, ikki ustun shaklida va alifbo tartibida tuzilgan. Ayrim terminlarning lotin alifbosidagi izohlari ham berilgan. E'tiborlisi shundaki, har bir jild alohida sahifalanmagan, balki umumiy sahifalanish tizimi qo'llangan. Masalan, birinchi jild 800-betda yakunlansa, ikkinchi jild 801–1600-betlarni, uchinchi jild 1601–2400-betlarni, to'rtinchi jild 2401–3200-betlarni, beshinchi jild 3201–4000-betlarni va oltinchi jild 4001–4830-betlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi jild آ (a) harfi bilan boshlanib احوص (Ahvas) bilan tugaydi. Ikkinchi jild أخاب (Axab) bilan boshlanib پيهوآ (Pihoa) bilan yakunlanadi. Uchinchi jild تاباسقو (Tabasko) bilan boshlanib ريئويا (Rioja) bilan tugaydi. To‘rtinchi jild زاب (Zob) bilan boshlanib يزدي علي (Ali Yazdiy) bilan yakunlanadi. Beshinchi jild عماد (Emad) bilan boshlanib لوآره (Luara) bilan tugaydi. Oltinchi jild esa لوآره viloyati bilan boshlanib يهودا (Yahuda) bilan nihoyasiga yetadi.

Nashr yuzining yuqori qismiga “Qomus ul-a’lom” nomi yozilgan bo‘lib, markaziy qismida muharrir sifatida “Sh. Somiy” nomi keltirilgan. Pastki qismida jild raqami va undan keyin “Yuqori maorif nazorati tomonidan reja va tahsin bilan nashr qilindi” degan yozuv joylashtirilgan. Eng pastki qismida esa Istanbul, Mihran matbaasi, Bob-i Ali ko‘chasi, 7-raqam va 1314-yil sanasi ko‘rsatilgan. Bu holat asarning davlat tomonidan rasmiy ravishda qo‘llab-quvvatlanganini ko‘rsatadi.

Ensiklopediyada asosiy raqamlangan sahifalargacha bo‘lgan qism maxsus belgilar va arab harflari asosida sahifalangan. Dastlabki besh sahifa raqamsiz bo‘lsa, keyingi sahifalar arab harflari bilan tartiblangan. Ushbu qism eslatmalar va bo‘sh sahifalarni ham o‘z ichiga oladi.

XULOSA. “Qomus ul-a’lom” o‘z davrining beqiyos ensiklopedik manbasi sifatida nafaqat XIX asr Usmonli ilmiy muhitida, balki bugungi kunda ham o‘z ilmiy va madaniy ahamiyatini yo‘qotmagan. Tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilishi hamda dunyoning nufuzli kutubxonalarida saqlanishi ushbu asarning tarixiy va ilmiy qiymatini yana bir bor tasdiqlaydi. Munaqqidlar va olimlarning e’tiroflari ushbu ensiklopediyaning turk va Islom olamidagi ilk mukammal ensiklopedik tadqiqotlardan biri sifatida tan olinganini ko‘rsatadi. Asar o‘z davrida ham, undan keyingi davrlarda ham kitobxonlarning dastlabki murojaat manbalaridan biriga aylangan. Sharq va G‘arb ilmiy an‘analarining uyg‘unlashuvi hamda maqolalar qamrovining kengligi “Qomus ul-a’lom”ning ilmiy va madaniy qiymatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Şemseddin Sami. Kamûs-i Türkî. — İstanbul: Yeditepe, 2021.
2. Agah S.L. Şemseddin Sami. — Ankara: Türk Dil Kurumu, 1969.
3. Agah S.L. Şemseddin Sami. — Ankara: Türk Dil Kurumu, 1969.
4. Agah S.L. Şemseddin Sami. — Ankara: Türk Dil Kurumu, 1969.
5. Agah S.L. Şemseddin Sami. — Ankara: Türk Dil Kurumu, 1969.
6. Şemseddin Sami. Usûl-i Tenkit ve Tertip. — Ankara: Akçağ, 2017.